

Glossariy:

Ildiz (radix) — o‘simlikning asosiy va eng muhim organi. Ildiz tuproqdan suv va oziq moddalarni so‘rib olish, o‘zida turli birikmalarni sintez qilish va ularni o‘simlikning yer ustki qismlariga (poya, barglar) yetkazib berish funksiyalarini bajaradi. Shuningdek, ildiz tuproqqa mikrofloraning rivojlanishini tezlashtiruvchi birikmalar ajratadi va tuproq hosildorligini oshiradi. Ildiz ba’zi organik moddalarni ham ishlab chiqaradi. Ko‘plab o‘simliklarda ildizda zaxira oziq moddalar to‘planadi.

O‘q ildiz — asosiy ildizning yaxshi rivojlanishi natijasida hosil bo‘ladi va boshqa ildizlardan kattaroq bo‘lib, qalinligi va uzunligi bilan farq qiladi.

Popuk (patak) ildiz — bir pallali o‘simliklarga xos bo‘lib, bu o‘simliklarda asosiy ildiz tezda quriydi yoki butunlay rivojlanmaydi. Ba’zan esa patak ildizlar o‘sadi va ular o‘xshash rivojlanadi (masalan, boshqodoshlarda).

Ildizning shimuvchi qismi — ildiz tukchalari joylashgan, ularning vazifasi suv va unda erigan oziq moddalarni o‘ziga shimib olishdir.

Bo‘linuvchi qism — ildizning o‘sishini ta’minlaydigan, doimiy ravishda bo‘linib turadigan hujayralar joylashgan qismi.

Ildiz qinchasi — ildizning uchki qismini himoya qiladigan va o‘rab turadigan hujayralar to‘plami.

O‘tkazuvchi qism — ildizda so‘rilgan suv va oziq moddalarni poyaga yetkazib beradigan va poyadan kelgan moddalarni ildizga uzatadigan qism.